

VAQF INSTITUTINING MUSULMON JAMIYATIDAGI TUTGAN
ROLI VA AHAMIYATI**Xolmaxmatova Kamola***O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi**Islomshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi*

+998947229660

kholmaxmatova@gmail.com

Annotatsiya: Vaqf - islom moliyasi tizimining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. U ixtiyoriy xayriya shaklida namoyon bo'lib, islom huquqida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy omil jamiyat taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashda va rivojlanishida samarali bo'lgani isbotlangan. Vaqf tizimi kambag'allikni kamaytirish, ta'lim, tarbiya, sog'lioni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa ko'plab sohalarda farovonlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Mazkur maqolada vaqf tushunchasi va mohiyati, shuningdek, uning jamiyatdagi roli va barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyati muhokama qilinadi. Asrlar davomida mavjud bo`lgan vaqflar va ularni musulmon dunyosiga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

Kalit so`zlar: Vaqf, iqtisodiy barqarorlik, tarix.

Vaqf shunday bir tizimki, u orqali ko`plab moliyaviy muammolarga yechim topilgan. Musulmon davlatlarning asosiy moliyaviy manbayi sifatida xizmat ko`rsatgan. U bilan masjid, madrasa, ko`priq, shifoxona, kutubxona, do'kon, mehmonxona va quduqlar qurilgan, aholi uchun bog'lar va xiyobonlar, kir yuvish joylari, hammom, bozor, ziyoratgohlar, oshxonalar, sayohatchilar uchun karvonsaroylar tashkil etilgan, piyodalar yo'lagi, beva va yetimlar uchun uylar, mayoq, kamon va kurash maydonlari, qal'alar, mudofaa inshootlari barpo etilgan. Maktab o'quvchilariga oziq-ovqat va maktab anjomlari bilan yordam berish, masjid va ko'chalarni yoritish va tozalatish, xizmatkorlarning xo'jayinlari tomonidan tanbeh



eshitmasligi uchun ular sindirgan idishlarning o'rniga yangisini olish, qarz sababli qamoqqa tushganlarning qarzini to'lash, tog'larda yo'llar ochish, yetim qizlarga sep tayyorlash, qarzdorlarning qarzlarini to'lash, bevalarga va muhtojlarga yordam berish, bahor faslida ochiq havoda bolalarni sayr qildirish, kambag'al va qarindoshi yo'q kishilarning jasadini dafn qilish va barcha dafn xarajatlarini qoplash, bayramlarda bolalar va yetimlarni turli sovg'alar bilan xursand qilish kabi xayrli ishlar moliyalashtirilgan. Qolaversa, vaqf mulklari orqali aksar davlat askarlari qurol-aslaha va kiyim-kechak bilan ta'minlangan, asirlar ozod qilingan¹.

Dastlab, vaqf xayriya, sadaqa sifatida ko`rilgan bo`lsada, keyinchalik huquqiy va ijtimoiy tizim sifatida rivojlangan.

Vaqf lug`atda "tutib turish", "to`xtatish" degan ma'nolarni anglatadi. Masalan, agar hayvonni tutib turilsa, "vaqofta dabbata", ya'ni "hayvonni to`xtatding" deyiladi.

Vaqf bu – ma'lum bir narsani belgilangan shaklda tutib turish va ma'lum maqsadga yo`naltirishdir. Vaqf – mulkning foydasini sadaqa sifatida berishdir. Mulk vaqfga aylangach uni sotish, sadaqa qilish va meros qoldirish mumkin bo`lmaydi. Vaqf – mulkning o'zini vaqf qiluvchining mulki sifatida ushlab turish va uning foydasini sadaqa qilishdir.

Ba'zi manbalarda "vaqf" atamasi "al-habs" tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Bu esa, mulk ustidan erkin muomala qilish – uni sotish, hadya qilish yoki meros qilib qoldirish kabi huquqlarni to`xtatish orqali uning faqatgina foydasidan belgilangan maqsadlar yo'lida foydalanishni bildiradi.

Vaqflar Rasululloh (s.a.v.) va sahabalar davridan mavjud bo`lgan. Garchi o'sha davrda ular vaqf deb atalmagan bo`lsa ham hadislarda ular haqida tarixiy ma'lumotlar uchraydi. Vaqf tizimi shakllanish va rivojlanishida asos sifatida olinadigan hadislar bor. Ulardan biri Abu Hurayra (r.a.) dan rivoyat qilinadi: Nabiy (s.a.v.): "Odam bolasi vafot etganda, uning amallari kesiladi. Faqat uch narsadan: sadaqai joriyadan, manfaatlanadigan ilmdan va uning haqqiga duo qilib turadigan solih farzanddan kesilmaydi" dedilar².

¹ Dr. İsmail Kurt. Para vakıflarının muhasebesi. – S. 6.

² Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. Savdo, ziroat va vaqf kitobi. 11-juz. – Toshkent, 2025. – 276.-b



Vaqf institutlarining faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ular nafaqat ta’lim tizimining rivojlanishiga xizmat qilgan, balki sog‘liqni saqlash muassasalari — shifoxonalar barpo etish, yo‘l va ko‘priklar qurish, turar joylar tashkil etish orqali infratuzilmani mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, vaqflar aholining ijtimoiy farovonligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash va kambag‘allik darajasini kamaytirishda ham samarali vosita bo‘lgan.

Vaqf insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga turli va keng qamrovli hissasi bilan muhim rol o‘ynagan. Uning roli deyarli barcha sohalarga — qishloq xo‘jaligi, sanoat va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga - chuqur kirib borgan³.

Islom iqtisodiy tizimida, ko‘ngilli xayriya ishlari va vaqflar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlар barchasi farovonlikning ajralmas qismi sifatida qabul qilinadi.

Vaqflar ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini ham o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi muassasalarni tashkil etish va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilgan. Jumladan, maktablar, madrasalar, boshqa turdagи o‘quv yurtlari, shuningdek, shifoxonalar va davolash maskanlari vaqf mulklari hisobiga barpo etilgan yoki ularning faoliyatini davom ettirish uchun doimiy mablag‘ bilan ta’milangan.

Vaqf institutlari o‘z faoliyatida ta’lim sohasini faqat ma’lum bir yo‘nalish bilan cheklab qo‘ymay, tibbiyot, astronomiya, farmatsevtika kabi turli fan sohalarini o‘z ichiga olgan holda keng qamrovli ilmiy-ma’rifiy faoliyatni amalga oshirgan. Bu holat vaqflarning ko‘p tarmoqli ilm sohalarini rivojlantirishdagi ahamiyati va o‘z navbatida ilm-fan taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo‘sghanini ko’rsatadi. Natijada, vaqf asosida tashkil etilgan ta’lim muassasalari o‘rtalarda keng miqyosli ilmiy uyg‘onish jarayonining muhim omillaridan biriga aylangan.

Vaqflar talabalar va o‘qituvchilarni taqdirlash, ularning ta’limi va turar joylari, ovqatlanish va davolanish kabi xarajatlarni qoplash uchun sarflangan. Hatto talabalar uchun alohida yotoqxona va turar joylar ham taqdim etilgan. Natijada, vaqf asosida shakllangan ushbu tizim mustaqil va barqaror ta’lim muassasalari tarmog‘ini vujudga

³ Masoud Ahmad. Role of Waqf in Sustainable Economic Development and Poverty Alleviation: Bangladesh Perspective // Journal of Law, Policy and Globalization.-Bangladesh: International Institute for Science, tecknology and Education, 2015. – P. 119.



keltirgan. Talabalar va o‘quvchilar ko‘pincha davlat maktablarida yoki hukumat ta’lim muassasalarida tahsil olishgan, vaqflar esa ularning umumiy ehtiyojlarini qoplashga xizmat qilgan.

Islom jamiyatlarning dastlabki davrlarida, xususan Abbosiylar va Usmoniyalar davrida, vaqf masjidlari, maktablar (madrasalar), kutubxonalar, shifoxonalar va boshqa ijtimoiy muassasalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynagan. Bu muassasalar diniy va ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilgan bo‘lib, musulmon jamiyatlarining farovonligiga katta hissa qo‘shgan.

Masalan, dunyodagi eng qadimiy universitetlardan bo‘lgan Al-Qaravin (Marokashda) va Al-Azhar (Misrda) vaqf mablag‘lari orqali moliyalashtirilgan bo‘lib, bu vaqfning ta’lim sohasidagi tarixiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ibn Kasir o‘zining “Al-bidoya va an-nihoya” kitobida 631 hijriy yil voqealarida zikr qilishicha, o`sha yili Bagdodda xalifa al-Mustansir billoh tomonidan qurila boshlagan madrasaning qurilishi nihoyasiga yetgan. Bunday madrasa hech qayerda bo‘lмаган. Madrasada ta’lim olish jarayonida sunniylikdagi to`rt mazhabga tegishli ilm oluvchilarning har biriga bir xil, ya’ni teng imkoniyat yaratilgan. Har bir mazhabdan 62 nafardan faqih, to`rt nafar yordamchi, har bir mazhabning mudarrisi, hadis ustozи, ikki qori, 20 nafar tinglovchi, tibbiyot bilan shug`ullanadigan 10 nafar musulmon shaxs, yetim bolalar uchun maxsus o`quv maskani mavjud bo`lgan. U yerda barcha uchun yetarli non, go`sht, holva hamda yetarli nafaqa bo`lgan⁴.

Odil podshoh Nuriddin Mahmud ibn Zankiy har bir hududda ko`p sonda madrasa va xonaqohlar qurishni amr qilgan va ularga ko`plab mol-mulklarni vaqf qilgan. U Damashqda Dor al-hadis qurdirgan hamda unga va unda faoliyat olib boruvchilarga ko`plab mol-mulk vaqf qilgan. U yetimlar uchun ham ta’lim maskanlari qurdirgan hamda u yerda yetimlar va ularning ta’lim olishlari uchun katta miqdorda mablag`lar ajratgan, shuningdek, masjidlar qurdirgan va u yerdagi Qur’он qorilari uchun mol-mulklar vaqf qilgan.

O`sha davrlarda ilmga atalgan vaqflar ham juda xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lgan. Masalan, Al-Azhar masjidi faoliyatini barqaror yuritish va u yerda dars

⁴ Ismoil ibn Kasir. Al-bidoya va an-nihoya. 23-juz. Bayrut: Maktabatu al-maorif. – B. 139.



berayotgan ustozlarga imkon qadar qulayliklar yaratish maqsadida turli vaqflar tashkil etilgan. Shulardan biri — “xachir vaqfi” bo‘lib, u Al-Azhar o‘qituvchilarining harakatlanishlari uchun xizmat qilgan xachirlar (mayda yuk eshaklari) xarajati va parvarishiga bag‘ishlangan. Bu orqali ustozlarning darsga kelishdagi qulayligi ta’minlangan.

Asrlar davomida vaqf amaliyoti rivojlanishda davom etib, islomiy sivilizatsiyaning ajralmas qismiga aylangan. Ko‘plab musulmon mintaqalarda vaqf turli rivojlanish loyihalarini moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lgan. Misol uchun, Misrda Mamluklar sulolasi davrida vaqf yirik shifoxonalar, masalan, Qalovun shifoxonasi kabi muassasalarni qurish uchun ishlatilgan bo‘lib, bu yerda minglab bemorlarga bepul xizmat ko‘rsatilgan. Bu esa, agar to‘g‘ri boshqarilsa, vaqfning ijtimoiy farovonlik vositasi sifatida ulkan salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Nuriddin Mahmud ibn Zankiy Damashq shahrida joylashgan buyuk “Nuriy” shifoxonasini ham tashkil etgan bo‘lib, ushbu muassasa aynan kambag‘allar va muhtojlar ehtiyojini qondirish maqsadida vaqf etilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bu shifoxona o‘z davrida dunyodagi eng ilg‘or tibbiyot markazlardan biri bo‘lgan va hijriy 1317-yilgacha, ya’ni deyarli 800 yil davomida uzlusiz faoliyat yuritgan⁵.

Musulmonlar, ayniqsa, shifoxona vaqflarida g‘oyat ajoyib va ilg‘or tajribalar joriy etganlar. U zamonlarda yozilgan vaqf hujjatlarida shunday shartlar qo‘yilgan edi. Har bir bemorga alohida idishda ovqat berilishi, bu idish boshqa bemor tomonidan ishlatilmasligi kerak. Idishlar yopiq holda olib kelinishi va bemorga toza, o‘sha holatda yetkazilishi zarur. Bimaristonlarda (o‘sha davr shifoxonalarida) uyqusi buzilgan bemorlar uchun alohida xonalar ajratilgan. Bu joylarda ularga xonandalarning qo‘sishq aytishi yoki hikoyachilarining ertak so‘zlab berishi orqali tinchlik berilgan. Bemorlar shunday muhitda uqlab qolishlari maqsad qilingan. Bu odat 1798-yilda Fransuzlar Misrga kirguncha davom etgan va fransuz olimlari bu holatni o‘z ko‘zlar bilan ko‘rib, yozib qoldirishgan. Bundan tashqari, vaqf tibbiy bilimlarni rivojlantirish maqsadida talabalarga amaliyot o‘tkazadigan o‘quv shifoxonalarni ham tashkil etgan. Hatto ba’zi davrlarda butun boshli shaharlar ham tibbiyot sohasi va uning xodimlariga vaqf

⁵ Manosiruddun ibn Furot. Tarix ad-duval va al-muluk. 4-jild. –B.23.

qilingan. Bu xizmatlar nafaqat tibbiyot ahli uchun, balki ularning yordamidan foydalangan bemorlar va muhtojlar uchun ham katta xizmat qilgan.

Islom tarixining turli davrlarida vaqflarning sarflanish yo‘nalishlari kengayib borgan va turli sohalarda namoyon bo‘lgan. Ushbu yo‘nalishlar islom tamadduni naqadar yuksak madaniyatga va insonparvarlik qadriyatlariga asoslangani haqida aniq tasavvur beradi. Bugungi kunda bu fazilatlarni ko‘rsatib beruvchi o‘nlab, hatto yuzlab tarixiy misollar mavjud. Mashhur sayyoh Ibn Battuta hijriy 8-asrda, Bahriy Mamluklar davrida Damashq shahriga tashrifi chog‘ida u yerdagi vaqf faoliyatlaridan chuqrta’sirlangan.

“Damashqdagi vaqflar soni va turlari shu qadar ko‘pki, ularni sanab tugatish qiyin. Masalan, Ular orasida hajga borishga qodir bo‘lmaganlar uchun vaqf mavjud bo‘lib, ulardan har bir kishi uchun haj qiladigan odamga zaruriy mablag‘ ajratiladi. Shuningdek, turmush qurayotgan, biroq oilasi ularni moddiy taminlay olmaydigan oilalar uchun, qizlarni turmushga tayyorlash vaqflar mavjud. Asirlikka tushganlarni ozod qilish uchun ham vaqflar tashkil etilgan. Safarda yurgan musofirlar uchun esa ovqat, kiyim-kechak va vataniga qaytish uchun mablag‘ ajratiladigan vaqflar bor. Damashq ko‘chalarini tekislash va tosh bilan qoplash uchun ham vaqf mablag‘lari sarflanadi. Shahar ko‘chalarida piyodalar uchun ikki yo‘lak bo‘lib, o‘rtadan esa otliq va aravalilar o‘tadi. Bundan tashqari, ko‘plab boshqa savobli ishlar uchun ajratilgan vaqflar ham mavjud⁶”

Ibn Battuta o‘z safarlari davomida ko‘rgan eng g‘aroyib vaqflardan biri sifatida “idish-tovoq vaqfi”ni tilga oladi.

“Bir kuni Damashqning bir ko‘chasidan o‘tayotib, bir mulozimatdagi kichik quldek bolani ko‘rdim. Uning qo‘lidan xitoycha sopol likop tushib ketdi va chil-chil sinib ketdi. Atrofdagilar to‘planib qoldi. Ulardan biri unga dedi: “Sinib ketgan bo‘laklarni yig‘ishtir va ularni idish-tovoq vaqfi boshlig‘iga olib bor”. Bola bo‘laklarni

⁶ Min ajoib al-avfoq al-islomiy. Muhammad Ayyub. <https://www.aljazeera.net/midan/intellect/history/2017/2/27/من-أقوال-الإمام-السلفية-الإسلامية>



to‘pladi va uni bir kishi bilan birga olib bordi. U bo‘laklarni ko‘rsatdi. Vaqf vakili unga sinib ketgan idishga o‘xhash yangisini sotib olish uchun yetarli miqdorda pul berdi⁷.

Usmonliylar davrida esa o‘ta g‘aroyib va o‘ziga xos vaqflar paydo bo‘lgan. Jumladan, to‘y va bayram marosimlarida zebu-takomot (ziynat) uchun zargarlik buyumlarini ijaraga beruvchi vaqf tashkil etilgan. Bu orqali kambag‘al fuqarolar o‘z yoki oila a’zolarining to‘y marosimlarida bepul bezanib, ijtimoiy tenglik hissini tuya olganlar. Bayram tugagach, ziynat buyumlari vaqf idoralariga qaytarilgan. Bunday tashabbuslar odamlarga qashshoqlikni unutishga yordam bergan, ularning qalbini quvontirgan.

Vaqf orqali ta’milangan ijtimoiy yordam shakllaridan biri mehmonxona va boshpanalar uchun qilingan vaqf. Bu turdagи vaqflar, ayniqsa yo‘lda qolgan va boshpanasizlar uchun tunash joylarini ta’milashda katta rol o‘ynagan. Yo‘lovchi va boshpana izlovchilar uchun xavfsiz boshpana bo`lgan.

Suv quduqlari va oshxona vaqflarning maqsadi - oziq-ovqat va ichimlik bilan ta’minlab, ochlik va chanqoqdan aziyat chekayotgan kambag‘allarga yordam berish bo`lgan.

Vaqf institutlari ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagina emas, balki siyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ayyubiy hukmdorlardan Sulton Salohiddin ham vaqflarga jiddiy e’tibor qaratgan. Salibchilar hijriy 564-yilda Misrga hujum qilganida ular tomonidan asir olingan musulmonlarni ozod qilish uchun Bulbays shahrini vaqf qilgan. Bu vaqf barcha musulmonlar ozod qilinguncha davom etgan⁸.

Vaqflar jamiyatning zarur ehtiyojlarini va dolzarb talablarini qondirish uchun xizmat qilgan, hatto infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynagan. Bunga yo‘llar, quduqlar, ko‘priklar, qal’alar, suv inshootlari va boshqa ko‘plab obyektlarga vaqf ajratilgani misol bo‘la oladi.

⁷ Min ajoib al-avfoq al-islomiy. Muhammad Ayyub. <https://www.aljazeera.net/midan/intellect/history/2017/2/27/> من-الأوقاف-الإسلامية

⁸ Manosiruddun ibn Furot. Tarix ad-duval va al-muluk. 4-jild. –B.23.



Bu ko‘p qirrali xizmatlarga qilingan xarajatlar davlatning umumiy xarajatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, vaqflar orqali jamiyat ehtiyojlari qoplangani sababli, davlat zimmasidagi moliyaviy bosim ancha yengillashgan.

Natijada, davlat o‘z ishlarini yanada yaxshiroq va samaraliroq tarzda yuritish imkoniga ega bo‘lgan. Chunki, jamiyat a’zolari ham javobgarlikning bir qismini o‘z zimmalariga olib, davlatning yukini yengillashtirganlar⁹.

Vaqflar jamiyatda ijtimoiy tenglikni muayyan darajada ta’minalashda katta ta’sir ko‘rsatgan. Ular kambag‘allar va muhtojlarga yordam ko‘rsatish, ularga munosib hayot sharoitlarini yaratib berish orqali ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi farqni kamaytirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, o‘rta tabaqa vakillarini ham qo‘llab-quvvatlagan — ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab xizmatlarga sarflangan mablag‘lar bilan aholi keng qatlamlari manfaat ko‘rgan¹⁰. Moddiy yordam va nafaqalar vaqf mulklaridan olingen daromadlar hisobidan amalga oshirilgan. Vaqf mulklari foydali ishlatalishi natijasida hosil bo‘lgan daromadlar kambag‘allar va muhtojlarga muntazam ravishda taqsimlangan. Bu esa muhtoj oilalarga barqaror daromad manbayini ta’minalagan¹¹.

Hukmdorlar, yuqori mansab egalari, yirik boylar va savdogarlar uchun vaqf siyosiy va ijtimoiy dastak vazifasini ham bajargan. Jumladan, hukmdorlar aholi orasida o‘z ta’sir doiralarini saqlab qolish va mustahkamlash, yuqori tabaqa vakillari esa ijtimoiy nufuz, obro`-e’tiborga erishish maqsadida vaqf ishlarida faol qatnashganlar. Ular yirik loyihalar, xususan, diniy va jamoat muassasalari qurilishi, ularning doimiy ta’moti hamda boshqa xayriya tadbirlar uchun yirik mulklarini vaqfga aylantirganlar¹².

Masalan, Usmoniylar imperiyasi hukmdori Sulton Sulaymon Qonuniy (hukmronlik davri 1520-1566) rafiqasi Hurrem Sulton tomonidan 1552-yilda Quddusdagi yangi majmua foydasiga qator mulklar vaqf sifatida ta’sis etiladi. Mazkur

⁹ Dr. Ayman Muhammad. Al-vaqf va duvaruhu fi at-tanmiya al-iqtisodiya // Majalla ash-shar’iyya va ad-dirosot alislomiya. – Kuvayt: al-majlis an-nashr al-ilmiy – Jomia al-Kuvayt, 2005. – S. 51

¹⁰ Ana Maghfiroh. The role of wakaf in empowering local economies: a study of its potential in modern Islamic finance // Berajah Juurnal. –B. 1197-1198.

¹¹ Ayman Muhammad Umar. Al-vaqf va duvaruhu fi at-tanmiya al-iqtisodiya. // majalla ash-shar’iyya va ad-dirosot alislomiyya. – Quvayt: al-majlis an-nashr al-ilmiy – Jome’ al-Kuvayt, 2005. – S. 45.

¹² Oberauer N. Early Doctrines on Waqf Revisited: The Evolution of Islamic Endowment Law in the 2nd Century AH. //Islamic Low and Society Vol. 20, No. 1-2 (2013). – P. 3.



majmua masjid, haj ziyoratchilari uchun 55 ta hujrali inshoot hamda faqir va miskinlarga mo`ljallangan oshxonadan iborat bo`lgan. Muallif Odel Peri Hurrem Sultonning vaqf hisobidan ta'minlangan mazkur me'moriy majmuasining XVIII asr oxirlarida ushbu hududda kechgan siyosiy voqealardagi roli va o`rni katta bo`lganiga aniq misollar orqali e'tibor qaratadi¹³.

¹³ Peri O. The Waqf As an Instrument to Increase and Consolidate Political Power... – P. 56-62.